



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

“MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN” – TURKIY XALQLAR LEKSIKASINING SO‘NMAS BULOG‘I

Sobirov Abdulhay Shukurovich,
filologiya fanlari doktori, professor, Andijon davlat universiteti
sobirov-1957@mail.ru

Djurabayeva Zamira Axmedovna,
PhD, dotsent, Andijon davlat pedagogika instituti
zamiradjurabayeva-1958@gmail.com
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/YYUP5374

Annotatsiya. *Maqolada Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari, uning turkiy tillar rivojida tutgan o‘rni ot leksemasi va uning atrofiga birlashgan til birliklari misolida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *til, o‘zbek tili, qozoq tili, turkiy tillar, Alisher Navoiy, lug‘atshunoslik, ot, otning turlari, tillarning bugungi holati.*

Аннотация. *Мақалада Әлишер Навоидың «Мухокамат ул-лұғатайн» еңбегі, оның түркі тілдерінің дамуындағы орны, жылқы есім лексемасы мен оның төңірегіне топтасқан тілдік бірліктердің мысалында ашылады.*

Негізгі сөздер: *тіл, өзбек тілі, қазақ тілі, түркі тілдері, Әлишер Навои, лексикография, жылқы есім, жылқы есім түрлері, тілдердің қазіргі жағдайы.*

“MUKHOKAMAT UL-LUGATAYN” – AN ENDLESS SOURCE OF THE VOCABULARY OF THE TURKIC PEOPLES

Abstract. *This article examines Alisher Navoi's Mukhokamat ul-Lugatain and its contribution to the development of Turkic languages, focusing on a specific nominal lexeme and the linguistic units associated with it. Through this analysis, the article highlights the significance of Navoi's work in shaping the linguistic landscape of Turkic languages and its enduring influence on their evolution.*

Keywords: *language, Uzbek language, Kazakh language, Turkic languages, Alisher Navoi, lexicography, grass, types of nouns, current state of languages.*

Markaziy Osiyo azal-azaldan Yevropa va Osiyo qit‘asini bir-biriga bog‘lab turuvchi ko‘prik sanalib kelgan. Turli davlatlar va millatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma‘naviy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda ushbu mintaqada yashagan turkiy xalqlar va ularning bugungi avlodlari sanalgan o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, ozarbayjon, tatar, boshqird va boshqa xalqlar muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, bu borada tarixi, urf-odatlar, dunyoqarashi bir-biriga yaqin va asrlardan beri yonma-yon hududlarda yashab kelayotgan qardosh o‘zbek va qozoq millatlarining o‘rni katta.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘zining xalqaro va mahalliy minbarlarda qilgan chiqishlarida mazkur masalaga alohida ahamiyat qaratib, Markaziy Osiyoning jahon tamadduni chorrahasida joylashganini ta’kidlab: “Bugun Markaziy Osiyo davlatlari oldida muhim strategik vazifa turibdi. U ham bo‘lsa, mintaqamizning global iqtisodiy, transport va tranzit yo‘laklarida chuqur integratsiyani ta’minlashdir”, – degan edi [Mirziyoyev, 2023: 422-429].

Bu gaplar bugungi kunimizning asosini tashkil qiladigan madaniy, ma'naviy va ma'rifiy hayotimizga ham tegishlidir. O'zbek tilida yaqin kishilarni jigarim, qardoshim, do'stim, o'rtog'im deb aytish azaliy qadriyatlardan sanaladi. Xuddi shu ma'noda qozoq tilida *бауырым* degan so'z keladi. Bu ikki xalq asrlar davomida bir-biriga yelkadosh, bir-biriga suyanchiq bo'lib kelgan.

Turkiy xalqlar ichidan yetishib chiqqan buyuk zotlar ham har ikki xalqqa birdek tegishlidir. Bugun Bilga hoqon, Kul Tegin, To'nyuquq Bahodir, Alp Er To'ng'a, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Abu Nasr Farobiy kabi ulug'lar haqida gap ketsa, ularni o'zbek yoki qozoq, qirg'iz, uyg'ur deb ajratish nojoiz. Barchasi hozirgi turkiy xalqlarga birdek tegishli.

O'rta asrlardan keyin o'zbek va qozoq xalqlari ichidan yetishib chiqqan mutafakkirlarning hayoti va ijodi haqida ham shunday gaplarni aytish mumkin. Ular katta ummonga turli tomonlardan kelib quyilgan azim daryolar kabi bir-birlarini to'ldirib, bir-birlaridan o'rganib ijod qilishgan. Jumladan, o'zbek xalqi tarixida Alisher Navoiy va qozoq xalqi tarixida Abay Qo'nanboyevchalik chuqur iz qoldirgan ijodkor kam topiladi.

Xususan, akademik Sh.Sirojiddinovning ta'kidlashicha: "Alisher Navoiy Sharq Uyg'onish Renessansining yirik vakili sifatida jahon sivilizatsiyasi tarixida, ayniqsa, turkiy tilli xalqlar madaniy va ma'naviy hayotining rivojida alohida o'rin tutadigan yorqin shaxsdir" [Sirojiddinov, 2023: 3].

Qozoq yozuvchisi Qaldibek Seydanovning yozishicha, Abay Alisher Navoiy va Bobur kabi mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodini juda qadrlagan, ularning asarlaridan ilhom olgan. Muxtor Avezovning ta'kidlashicha, o'g'li Oqilboyga Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostoni syujeti asosida "Jarroq" nomli asar yozishni buyurgan.

Abay nabiralaridan birining ismini Bobur qo'ygan. "Qozoqning kelib chiqishi haqida birmuncha so'z" nomli maqolasida Boburshohning onasi bilan tug'ishgan ikki qarindoshi bo'lganini, kattasi Toshkentda, kichigi qozoqlarda xon bo'lganini ta'kidlagan. Qozoqlarga xon bo'lganining ismi Ahmad ekanligini, u qozoqlardan 300 askar to'plab, qalmoqlarga qarshi jang qilganini, bu jangda ularning jasoratini ko'rgan qalmoq xoni: "Bu bir yonog'ish bo'ldi", – deyish o'rniga "Mana bu bir Alash bo'ldi", – deb yuborganini va shundan so'ng Ahmadning nisbasi Alash bo'lib qolganini aytib o'tgan [Seydanov, 2015: 139]. Bu faktlar ham ikki qardosh xalqlar o'rtasidagi uzilmas rishtalar qadimdan bo'lib kelganini isbotlab turibdi.

Xususan, Alisher Navoiy nafaqat o'zbek, balki butun turkiy xalqlar madaniy va ma'naviy hayotida tub burilish yasagan buyuk zotlardan sanaladi. Agar ta'bir joiz bo'lsa, shunday deyish mumkinki, turkiy xalqlar bir musht bo'lib, bir xalq bo'lib yashagan qoraxoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar davrida siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotda turkiy tilning o'rni beqiyos bo'lgan. Turkiy til butun Ipak yo'li bo'ylab Sharqdan tortib G'arbgacha karvonlar tili sanalgan. Bu xususda Namangan davlat universiteti professori B.Ja'farov e'tiborga loyiq tadqiqot ishini bajargan. U o'zining "Kodeks kumanikus" hamda "Tarjumoni turkiy "va ajamiy va mo'g'liy va forsiy" qo'lyozmalarining qiyosiy tahlili" mavzusidagi doktorlik ishida "Kodeks kumanikus"dagi 780 ta va "Tarjumon turkiy "va ajamiy va mo'g'liy va forsiy"dagi 1400 ta leksik birlikning hozirgi o'zbek tilida istifoda etilishini uqtirib o'tgan [Ja'farov, 2022: 56].

Agar kumanlarning tarixda qipchoq deb yuritilganini hisobga oladigan bo'lsak, mazkur manbalarda qozoqcha so'zlarning ham salmoqli o'ringa ega ekanini tasavvur

qilish qiyin emas. XI-XIII asrlarda turkiy til ravnaq topdi, “Qutadg’u bilik”, “Hibat ul-haqoyiq” singari betakror asarlar yaratildi.

Keyingi asrlarda turkiy tilning davlat ishlaridagi, badiiy va ilmiy uslubdagi o’rni sezilarli darajada pasayib qolgan edi. Alisher Navoiyning buyuk xizmati shundaki, u turkiy tilning o’sha davrda saroy, madaniyat va adabiyot tili darajasida qo’llanayotgan fors-tojik tilidan har jihatdan aslo qolishmasligini ilmiy asoslab berdi. Agar Hazratning butun ijodini tarozining bir pallasiga qo’yib, ikkinchi pallasiga uning shu mavzuda yozilgan “Muhokamat ul-lug’atayn” asarini qo’yadigan bo’lsak, yuk keyingi pallaga og’ganini kuzatishimiz mumkin.

Mutafakkir shoir “Muhokamat ul-lug’atayn”da turkiy tilning juda ko’p jabhalarda forsiy tildan sira qolishmasligini, aksincha, juda ko’p o’rinlarda undan ortiq turishini aniq amaliy misollar yordamida isbotlab bergan. Shulardan birini turkiy xalqlar hayotida katta ahamiyatga ega bo’lgan ot bilan bog’liq leksik birliklar tashkil etadi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, turkiy xalqlarning katta bir qismi uzoq vaqt davomida Yevroosiyoning ulkan hududlarida ko’chmanchilik bilan hayot kechirgani tarixdan hammamizga ayon. Bu esa o’z-o’zidan, turkiy tillarning lug’at tarkibida birinchi galda chorvachilik, yilqichilik bilan bog’liq ulkan so’zlar zaxirasining paydo bo’lishiga olib kelgan.

Eramizdan oldingi II-I asrlarda Farg’ona vodiysiga tashrif buyurgan Xitoy elchisi Chjang Chyan: “Buyuk Farg’ona (Day-yuan) xunlarning janubi-g’arbida yoki Xan [mamlakatining] roppa-rosa g’arbida va undan 10 000 li (5760 km) yiroqliqda joylashgan. Ular [farg’onaliklar] dehqonchilik bilan shug’ullanishadi, sholi va bug’doy ekishadi, uzumdan sharob tayyorlashadi. [Ularda] badanidan qonsimon ter chiqadigan zotli otlar ko’p ekan. Aslida, ushbu otlar Tangri otlaridan tarqalgan ekan. Buyuk Farg’ona (Day-yuan) otlarini Tangri otlari (tyanma) desa to’g’ri bo’ladi”, – deb yozadi. [Xo’jayev, 2013: 33]. Gap yana otga borib taqalmoqda.

Tadqiqotchi T.Xo’jamberdiyev “Jivotnovodcheskaya leksika uzbekskogo yazika” (O’zbek tilining chorvachilik leksikasi”) nomli nomzodlik ishida Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asarida 800 dan ortiq chorvachilikka oid so’zlar tilga olinganini aniqlagan. Ularning 200 dan ortig’i ot bilan bog’liq so’zlardir [Xo’jamberdiyev, 1975: 10]. Mazkur qatlamga oid so’zlarning aksariyati Navoiy davriga oldingi davrlardan o’tgan. Alisher Navoiyning turkiy til taraqqiyoti yo’lidagi beminnat xizmatlari tufayli ular bugungi kungacha yetib kelgan va o’zbek hamda qozoq xalqlari tillarida faol qo’llanib kelinmoqda.

Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug’atayn”da yozadi: “Va jonivorlarning unidin bir ot kishnamaganiga shiyxa ot kuyubdurlar, teva bo’zlamogiga va uy mungramagiga va eshak xangramagiga va it tigishmagi va ulumagiga lafz yo’qtur. Yana ot anvoidaki, tubuchoq va argumoq va yaka va yobu va totu yo’sunluk – borini turkcha-o’q ayturlar. Va otning yoshin dari ko’prakin turkcha ayturlar. Bir qulunni «kurra» derlar. O’zga: toy va gunan va do’nan va to’lan va chirg’a va lang’a deguncha fasihroklari turkcha derlar va ko’pragi muni ham bilmaslar...” [Navoiy, 2000: 17].

Alisher Navoiy eslagan bu atamalar bugun ham jonli so’zlashuv tilida bor. Tadqiqotchi S.Usmonov “Gippologicheskaya terminologiya sovremennogo uzbekskogo yazika” nomli nomzodlik ishida ot yoshlarini tubandagicha ajratadi: “qulun – olti oygacha, toy – olti oydan bir yarim yoshgacha, g’o’non – 1,5-2,5 yoshli; do’non – 2,3-3,5 yoshli; osi – 3,5 yoshli otdir. O’rta yashar otlar 5-12 yosh, katta yoshli otlar 12-18 yosh, qari otlar 18dan yuqori yoshda bo’ladi. Shuningdek, u jayron, burul, chavkar, chetgir,

saman, to'riq, qorabayir, duldul, tulpor, ko'k, bo'z, qo'ng'ir kabi ot nomlari ustida batafsil tahlillarini beradi [Usmonov, 1988: 6].

Navoiy toychani lang'a, 6 yoshga kirgan otni chirg'a deb atagan. Bu ma'lumotlar Alisher Navoiyning turkiy tilda ot nomlari bilan bog'liq boy qatlamni dildan his qilganini isbotlab turibdi. Mazkur so'zlarning o'zbek va qozoq tillarida hamon saqlanib kelayotgani bu turkiy tillar boqiyligidan nishona.

"Kazaxskaya pravda" gazetasining 2013-yil 6-sentyabr sonida Yuriy Bekkerning "Verxom na sinem jerebse" nomli maqolasi e'lon qilindi. Maqolada qozoq tilida ot ranglarini bildiruvchi 358 ta leksik birlikning mavjudligi haqida yozilgan. Alkyreң, aqboz, burыл, qarauryл, kyreң, qылаң, теңbil, shabdar (o'ynoqi), ala, ala burыл, qұla, torы kabi otlar haqida gapirilgan. Bunday so'zlarning roman-german tillarida 60 ta, rus tilida 30 ta ekanligi ta'kidlangan. Undan tashqari, otning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq 100 dan ortiq, ot anjomlariga aloqador 200 dan ko'p so'zlarning mavjudligini haqida faktik materiallar bayon qilingan [Kazaxskaya pravda, 2013: 4].

Bu ma'lumotlar Navoiyning fikr-mulohazalari naqadar to'g'ri ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Alisher Navoiyning "Va otning eyarin agarchi "zin" derlar: ammo ko'prak ajzosin, misli: jibilgir va hano va to'qum va jazlig' va ularchog' va g'anjug'a va jilbur va qushqun va qantar va tufak va to'qa yo'sunluq ko'pin turkcha ayturlar va qamchini agar "tozyona" derlar, ammo buldurg'asin va chubchurg'asin turkcha ayturlar. Va jiba va javshan va ko'ha va qolganduruq va qorbichi va kechim va oha yo'sunluq urush asbobin ham turk tili bila ayturlar" degan fikrlari ot bilan bog'liq leksik qatlamning turkiy tillarda naqadar keng ko'lamda ekanligini isbotlaydi [Navoiy, 2000: 17].

Shoir tilga olgan eyar/egar turkiy xalqlarda eng muhim anjomlardan sanalgan.

Ot, ulov (ot, eshak, xachir, bug'u va boshqalar) ustiga uriladigan va minib o'tirish hamda yuk tashish uchun moslashtirilgan qulay abzalga egar deyiladi. Egarining suyanchiq, o'rindiq, do'g'a, qopqoq, qanot, terlik, ayl, uzangi, uzangibog' kabi qismlari bo'ladi va ularning har biri o'z nomiga ega. Alisher Navoiy bularni ham juda yaxshi bilgan.

Eng muhimi, Navoiy turkiy tilni forsiy tilga qiyoslaganda, arabcha so'zlarni ham misol tariqasida keltirmagan. Masalan, ot ma'nosida ishlatiladigan arab tilidagi markab leksemasini ham tilga olmagan. Bu shoirning o'z ona tilisini qadrlagani, uning obro'si, sha'ni uchun tinimsiz kurash olib borganini isbotlaydi.

Umuman olganda, Alisher Navoiy turkiy tilning tolmas kurashchisi va mohir bilimdoni bo'lgan. Uning yozganlaridan bir zarra olib, turkiy tillarga tatbiq etadigan bo'lsak, undan olam-olam ma'no kelib chiqaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 440-b.
2. Sirojiddinov Sh. Amir Alisher. – Toshkent, Adabiyot, 2023. – 200-b.
3. Qaldibek Seydanov. Navoiy va Abay// Jahon adabiyoti, 2015. – 8-son. – 137-140-b.
4. Ja'farov B. "Kodeks kumanikus" hamda "Tarjumon turkiy" va ajamiy va mo'g'liy va forsiy" qo'lyozmalarining qiyosiy tahlili: Filologiya fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. ... avtoreferati. – Namangan, 2022. – 56-b.
5. Xo'jayev A. Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar (Qadimiy va ilk o'rta asr Xitoy manbalaridan tarjimalar va ularga sharhlar). – Farg'ona: 2013. – 89-b.
6. Xujamberdiyev T. Jivotnovodcheskaya leksika uzbekskogo yazika: Avtoref. kand. diss. ... filol.nauk. – Tashkent, 1975. – 38 s.

7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. – 20 tomlik. – 16-tom. – Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: Fan, 2000. – 329-b.
8. Usmonov S. Gippologicheskaya terminologiya sovremennogo uzbekskogo yazyka: Avtoref. kand. diss. ... filol. nauk. – Tashkent: 1988. – 20 s.
9. Bekker Yu. Verxom na sinem jerebse// Kazaxskaya pravda, 2013-yil 6-sentabr soni.

MUHAKAMAT AL-LUGHATAYN'S LITERARY AND ACADEMIC ASPECTS

Tekcan, Münevver

Prof. Dr., University of Kocaeli,
munevvertekcan@hotmail.com

Yazıcı Şahin, Serpil

Asst. Prof. Dr, University of Kocaeli,
serpil.yazici@kocaeli.edu.tr
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/JBJX5630

Abstract. *This article examines the significant impact of Alisher Navai's literary works on the revival of Turkic languages, particularly Chagatai Turkic, marking a pivotal moment in the literary renaissance of Turkic peoples. This renaissance encouraged poets and authors to write in their native languages rather than Persian, which had long been the dominant literary medium. Navai's legacy has had a lasting influence, inspiring subsequent generations of writers. His work Muhakamat al-Lughatayn stands out for its innovative synthesis of the Timurid literary language, Chagatai Turkic, with Persian, providing a foundation for future literary and linguistic scholarship. Muhakamat al-Lughatayn is a seminal text that offers valuable insights into the linguistic and cultural dynamics of late medieval Central Asia. It is considered foundational in the field of Turkic philology and has had a profound influence on the development of Turkish literature and the global understanding of the region. The corpus of literature surrounding Navai's work is extensive and continues to shape scholarly discourse.*

Keywords: *Muhakamat al-Lughatayn, Persian, Chagatai Turki, Literary value.*

Abstrakt. *Navoiy adabiy asarlari turkiy tillar, jumladan, chig'atoy turkiy tilining tiklanishiga katta ta'sir ko'rsatib, turkiy xalqlar adabiy olamida qayta tiklanishga olib keldi. Bu uyg'onish shoir va mualliflarni asrlar davomida asosiy adabiy vosita bo'lib kelgan fors tilida emas, balki o'z tillarida ifoda etishga undaganini ko'rdi. Navoiy merosi mualliflarning kelajak avlodlari uchun zamin yaratdi, uning izidan borganlarni ilhomlantirdi. Uning "Muhokamat al-lug'atayn" asari temuriylar adabiy tili bo'lmish chig'atoy turkiy tilini fors tili bilan yangicha uyg'unlashgani, kelajakdagi adabiyotshunoslik va tilshunoslikka asos solganligi bilan diqqatga sazovordir. Muhakamat al-lug'atayn so'nggi o'rta asrlardagi O'rta Osiyoning til va madaniy dinamikasi haqida ma'lumot beruvchi ilmiy asardir. U turkiy filologiya sohasida asosiy matn sifatida baholanib, turk adabiyoti rivojiga va mintaqaning global idrokiga katta ta'sir ko'rsatadi. Mavzu bo'yicha adabiyotlar majmuasi keng.*

Kalit so'zlar: *Muhakamat al-lug'atayn, fors tili, chag'atoy turkiy, adabiy qadriyat.*

Introduction

Muhakamat al-Lugatayn, also known as *Muhakamet ul-Lughateyn*, is widely regarded as a groundbreaking work of Ali Shir Navai (d.1501), a distinguished Timurid poet, writer, and statesman who flourished in the 15th century. Completed in December 1499, this significant work is widely considered to demonstrate Navai's intellectual and literary excellence. During Navai's era, Persian emerged as the lingua franca of high culture, literature and governance throughout the Islamic world, including Turkic-speaking regions. Navai's position in the context of Turkic literature is particularly noteworthy, as he dedicated significant efforts to promoting his native language, the Timurid literary language, within the literary milieu of his era.

It is a widely held view amongst scholars that Ali Shir Navai is the most significant representative of classical Chagatai literature, having exerted a profound and lasting influence on the field. Navai demonstrated a precocious interest in literature, composing a corpus of twenty-nine works addressing subjects such as music, prosody, language and worldview, in addition to his contributions in the genres of *divan*, *masnavi*, *tezkire* and history. Navai was a staunch defender of his language, seeking to establish Turkish as a language superior to other languages through his literary works, thus encouraging the next generation to write in Turkish and raising the Chagatai language to a high level of literary expression. An in-depth analysis and study of Navai's extensive corpus has been carried out. The principal aim of this study is to demonstrate that Turkish is a literary language that is as proficient as Persian and, in certain instances, even more so. The work under scrutiny draws parallels between the two languages, accentuating the superiority of Turkish in terms of vocabulary. This assertion underscores Navai's linguistic cognisance and highlights his deliberate utilisation of Turkish to showcase its linguistic preeminence. Furthermore, al-Navai's critique extends to young poets who use Persian in their poetry, underscoring his commitment to upholding linguistic standards and promoting the literary preeminence of Turkish [Özönder 1996: 778a1/10-14]

In this work, Ali Shir Navai commences by enumerating the primary languages of the world as Arabic, Hindi, Chagatai, Turkic and Persian. He then proceeds to compare Turkish and Persian, acknowledging the prevailing consensus that Arabic is the most superior language and Hindi the least valuable. The author then attempts to substantiate his assertion that Turkish is the superior language based on various rationales. To this end, he employs a comparative analysis, drawing parallels between the two languages across a range of linguistic dimensions. Following these comparisons, he concludes that Chagatai is a superior language to Persian [Özönder, 1996: 168].

Since the 19th century, a significant body of studies has been accumulated on this work. Among these studies, which cover a wide range of content, a large number of scholarly studies and publications have been devoted to textual criticism, translation, textual analysis, and vocabulary and linguistic features. These publications are based on several

manuscripts of *Muhākemat al-lugatayn*. However, in the 19th and early 20th centuries, printed copies of the work were published several times in Paris, Istanbul, Crimea and Khokand, thus establishing it as one of the most significant sources of scientific studies among Nevâî's works.

A substantial corpus of research has been dedicated to the text of the work, with numerous scientific publications having been made and comparative texts having been prepared. The work has been translated into numerous languages, including Hungarian, French, Russian, Persian, and English, and also into Turkmen, Azerbaijani, Uyghur, Uzbek, and Turkish, as well as Ottoman Turkish [Boltabayev, 2024: 820].

The work of *Muhakamat al-Lughatayn* has had a significant impact on scholarly discourse, stimulating deliberations among scholars on subjects such as language, culture and identity. This has had a considerable effect on related fields, including, but not limited to, linguistics, literature and cultural studies, particularly in the context of understanding the interplay between the Persian and Turkic cultural spheres.

Literary Value

Navai's literary contributions were instrumental in catalysing the renaissance of the Turkic language, with a particular emphasis on the revitalisation and promotion of the Chagatai Turkic language. This contributed to asserting its viability and aesthetic appeal for elevated literary expression. This contributed to a literary renaissance among Turkic peoples, encouraging poets and writers to compose in their mother tongue rather than in Persian, the dominant literary medium for centuries. Navai's literary legacy has provided a foundation for subsequent generations of writers, inspiring many who have followed in his footsteps. Navai's literary contributions have been instrumental in shaping the development of Turkic literature, particularly in the works of subsequent generations of writers such as Fuzuli (d. 1556) and Babur (d.1530). These writers further advanced the development of Turkic literature, thereby consolidating its position as an integral component within the whole Turkic-speaking region.

The book is particularly significant for its skillful and innovative juxtaposition of the Timurid literary language, Chagatai Turkic, with Persian. These comparisons are remarkable for their inspiration and serve as a foundation for further literary and linguistic research in the field. Navai's skillful incorporation of the compelling literary language of the Timurids into his poetic compositions is particularly inspiring. An exciting aspect of the study is its in-depth analysis of Persian, the vibrant literary language of the Central Asian intellectuals of Navai's time. The richness and complexity of Navai's work are further enhanced by his skillful use of Chagatai Turkic, a literary language that was widely used by Central Asian intellectual elites at the time.

In contrast, the present work focuses on the Islamic cultural sphere, particularly the literary works of the Persian and Arabic traditions. The literary style of this work is reminiscent of Navai's other writings, and it is contended here that it established standards for prose and poetry in Turkic, exerting an influence on literary forms and genres. The

utilisation of language to convey emotion, philosophy and beauty, as demonstrated in this work, served as a model for subsequent poets. In addressing the question of literary superiority, Navai presents a compelling argument for the literary merits of the Turkic languages, despite the historical dominance of Persian. This argument is both inspiring and bold in its celebration of the rich cultural heritage of the Turkic language and its challenging of the established preference for Persian as the preferred literary language. As Navai points out, this approach is based on the following: "In the early childhood of my Persian, pearls began to emerge one by one from the inkwell of the mouth, but these pearls had not yet entered the thread of poetry. When the gems drawn from the depths of the heart into the thread of verse began to come to the shore of the mouth with the effort of the wave-maker of creation, it was fulfilled with the principle mentioned in the vision, my inclination was towards Persian. But when the age of knowledge began, when God Taalā made it special for creation to turn towards the foreign, to begin to be attentive and observant, (then) it became necessary to examine carefully the words of Turkish. Such a world came into view, more than eighteen thousand worlds! There the ornamental sky became known to nature as more than nine heavens! The treasure of infinity and height was discovered there; its pearls are brighter than the pearls of the stars! A garden of roses appeared before him; its roses were brighter than the stars of heaven! The environs of the blessed place are protected from the footsteps of strangers, and its wonderful breeds are free from the danger of being touched by the hands of others! But the snake of your cellar is fierce, and the thorns of your rosebush are endless.

